

DRAMADA ZAMON VA QAHRAMON FOJIASI (Shukrulloning “Hasrat bog‘i” dramasi misolida)

Saida Kurbanova,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shukrulloning “Hasrat bog‘i” she‘riy dramasi tahlil etilgan. Dramada aks ettirilgan zamon va qahramon tragizmi masalasi, ya‘ni “shaxsga sig‘inish” oqibatlari, ijtimoiy-siyosiy tuzum etkazgan jarohatlarning inson taqdiriga salbiy, fojiaiy ta‘siri muammosi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Shukrullo, she‘riy drama, ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy muammo, konflikt, zamon va qahramon fojiasi.

Аннотация. В данной статье анализируется поэтическая драма Шукрулло «Сад тоски» («Hasrat bog‘i»). Исследуется проблема трагизма времени и героя, отражённая в произведении, а именно последствия культа личности, а также негативное и трагическое воздействие общественно-политического строя на судьбу человека. Рассматриваются социальные, духовные и нравственные аспекты конфликта, лежащего в основе драмы.

Ключевые слова: Шукрулло, поэтическая драма, социальная и духовно-нравственная проблема, конфликт, трагедия времени и героя.

Abstract. This article analyzes Shukrullo’s poetic drama “Hasrat Bog‘i” (“The Garden of Sorrow”). It examines the issue of the tragedy of the era and the protagonist reflected in the work, particularly the consequences of the cult of personality and the negative, tragic impact of the socio-political system on human destiny. The study explores the social, spiritual, and moral dimensions of the conflict that forms the basis of the drama.

Keywords: Shukrullo, poetic drama, social and spiritual-moral problem, conflict, tragedy of the era and the hero.

Kirish. O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodi boy va serqirra bo‘lib, u nafaqat she‘riy, nasriy va badiiy-publitsistik asarlari, balki dramalari bilan ham o‘zbek teatri sahnalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Atoqli dramaturgning “Xatarli yo‘l” (1962), “Tabassum o‘g‘rilari” (1964), “To‘ydan keyin tomosha” (1980), “O‘g‘rini qaroqchi urdi” (1982), “Janjal” (1983), “Hasrat bog‘i” (2004) kabi she‘riy dramalari o‘zbek teatrlarida sahnalashtirilib, tomoshabinlar mehriга sazovor bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili. Shukrullo dramaturgiyasi o‘zbek adabiyotshunosligida bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, F. Jo‘rayev dramaturgning asarlaridagi chuqur ijtimoiy-ma‘naviy mazmun, obrazlar xarakteri va satirik yo‘nalish haqida fikr yuritgan. Shuningdek, H. Ikromov va T. Tursunov “Hasrat bog‘i” dramasini tahlil qilib, unda sovet tuzumi davridagi ijtimoiy fojealar, “shaxsga sig‘inish” oqibatlari hamda inson erkinligining poymol etilishi masalalari yoritilganini ta‘kidlaydilar. Mavjud tadqiqotlar asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, undagi zamon va qahramon fojeasining badiiy talqini alohida tadqiq etishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Shukrulloning “Hasrat bog‘i” she‘riy dramasi adabiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik hamda badiiy matn tahlili metodlari asosida o‘rganildi. Asardagi obrazlar tizimi, konfliktlar, dramatik vaziyatlar va qahramonlar

ruhiyati tahlil qililib, zamon va qahramon fojiasi masalasi yoritildi. Shuningdek, drama mazmunida aks etgan ijtimoiy-siyosiy muammolar tarixiylik va badiiylik uyg'unligida tadqiq etildi.

Tahlillar va natijalar. Shukrullo dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari ko'pgina tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Adabiyotshunos F.Jo'raev dramaturgning "Janjal" dramasini tahlil etib, shunday yozadi: "Shukrullo dramaturgiyasining o'ziga xosligi shundaki, uning asarlarida jiddiylik, chuqur fikr hukm suradi, birortasida yengil-yelpi obraz yoki voqeani uchratmaymiz. Ularning qaysi janrda yozilishidan qat'i nazar, satira tig'ini his etib turadi, kishi. Shuning uchun uning komediyalari ham tomoshabinni kuldirishdan ko'ra, ko'proq o'ylatib qo'yadi. Binobarin, sahna tili ham har bir obrazning tabiatidan, fe'l-atvoridan, ma'naviy dunyosidan kelib chiqilgan holda kashf etilgan".[1] Darhaqiqat, olim ta'kidlaganidek, Shukrulloning drama, komediya va melodramalarida davrning muhim ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolari, fojialari chuqur tahlil etiladi. Dramaturg yengil-yelpi o'ylar bilan dramaturgiyaga qo'l urmaydi, aksincha, sahna uchun mo'ljallangan asarlariga zamonning muhim muammolarini hadaf o'laroq tanlar ekan, dramatik asarning kitobxonga, sahnadagi pyesaning tomoshabinga kuchli estetik ta'sirini hamisha his etadi. Shukrullo yaratgan dramatik asar qahramonlari zamon va shaxs muammolarini o'zida tashiydi. Zero, "Dramatik asarlar (epik asarlar, shuningdek, spektakllar va aksariyat kinofilmlar kabi) o'ziga xos sujetga ega asarlardir. Ularda ma'lum bir zamon va makonda sodir bo'lgan voqealar shaxs va uning atrofidagi hodisalarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq jarayonlarda aks ettiriladi" (Tarjima bizniki – S.K.).[2]

"Hasrat bog'i" dramasida Sho'ro davrining dahshatli fojialari, jumladan, "shaxsga sig'inish" illati, mustabid tuzum tazyiqiga uchragan shaxslar bilan bog'liq ijtimoiy-maishiy, ma'naviy-axloqiy muammolar qalamga olinadi. Drama xususida o'z davrida matbuotda bir nechta taqrizlar e'lon qilingan bo'lib[3], H.Ikromov mazkur pyesa haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Bu pyesada butun davrni emas, Mustaqillik arafasidagi hayotdan bir parchani tasvirladi. 80-yillarning boshlaridan Sho'ro tuzumining joni halqumiga kelib qolgan va u endi jon talvasasida nafas olardi. Jon talvasasida bo'lsa ham turli nayranglarni o'ylab topib, xalqni yana ezishga, ochilib kelayotgan ko'zini yumishga harakat qilar edi. Shulardan biri afg'on va Chernobil. Dramaturg tuzum haqidagi aytadigan gapini ana shu nayranglardan boshlaydi", – deb yozadi.[4] San'atshunos T.Tursunov esa dramaga shunday baho beradi: "Pyesa she'riy drama shaklida yozilgan. Sujet voqealari mustaqillik arafalarida o'tadi. Unda sobiq Sho'ro tuzumi muhitida inson erkinining poymol etilishi, ildizining tomir-tomirlargacha chirib ketgan yolg'on g'oyalar dunyosidagi inson ahvoli har tomonlama tasvir etiladi"[5]. Ko'rinadiki, dramada 70 yillik mustabid tuzumning millat taqdiriga ko'rsatgan fojiaviy ta'siri qahramonlar fojiasi bilan vobastalikda aks ettiriladi. Dramada zamon va shaxs fojiasi, qatag'on zaxmi, Afg'on urushi va Chernobil fojialari, Sho'rolar davridagi buyruqbozlik va byurokratizm, "shaxsga

sig'inish"ning insonlar taqdiriga salbiy ta'siri kabi muammolar dramatik holatlarda aks ettiriladi. Zero, "dramaning tragediyadan farqi, unga nisbatan hayot voqealarini fojiaiy tarzda emas, dramatik holda ko'rsatishida"[6] dir. Bir so'z bilan aytganda, dramada nafaqat ayrim shaxslar fojiasi, balki butun bir millatning ma'naviy inqirozi masalasi badiiy gavdalanitiriladi. Bu inqiroz chetdan aralashuvlar va tazyiqlar asosida, inson hayotiga bepisandlik bilan qarashlar oqibatida yuz berganligi bilan ijtimoiy fojiani o'zida mujassam etadi.

"Hasrat bog'i" dramasi kompozitsiyasiga e'tibor qaratsak, u 3 parda, 6 ko'rinishdan iborat. Dramada O'lmas (o'ldirilgan askar), Ona (O'lmasning onasi), Murod (O'lmasning tog'asi, laqabi "Murod qo'rqqoq"), Mels, Ashrafiy, Azim (O'lmasning do'stlari), Jamila (Melsning sevgilisi), Xoliqulov (partiya rahbarlaridan biri), Nozanin (Xoliqulovning kotibasi), Mirsoat (devonasifat odam), Ziyod (mayxo'r), Qosim (choyxonachi) kabi personajlar ishtirok etadilar. Drama nazariyasi bilan shug'ullangan H.Abdusamatov ta'biri bilan aytganda, "Dramaturg qahramonlarning faoliyatini ko'rsatib, axloqini ifodalab, ruhiy olamini ochib, o'zining hayot haqidagi tafakkurini izhor etadi, davrning muhim, dolzarb masalalariga munosabatlarini bildiradi".[7] Darhaqiqat, Shukrullo dramaturg sifatida "Hasrat bog'i", "Unsiz faryod" va boshqa o'nlab dramatik asarlari orqali o'z davrining muhim muammolariga tomoshabin diqqatini qaratadi. Drama qahramonlarining hayoti, taqdiri, iztirobli fojialari orqali davr va shaxs fojiasi masalasiga jiddiy yondashadi.

Dramaning "Hasrat bog'i" deb atalishi ham ramziy ma'no kasb etib, u asar qahramonlari dard-iztiroblari hamda zamona hasratlaridan hikoya etish ma'nosi bilan birlashib ketadi. Shu o'rinda san'atshunos olim ta'kidlaganidek: "Pyesada dramaturg "Hasrat bog'i" deb Kalinin maydonini oladi. Lekin bu umumlashma – butun tuzum. Kommunistik saltanat "Hasrat bog'i", deb tushuniladi"[8]. Muallifning fikrlarini davom ettiradigan bo'lsak, drama qahramonlari Sovet davrining fojialaridan, zug'umlaridan, xo'rliklaridan hasrat qiladi. Shu ma'noda, dramatik asarning "Hasrat bog'i" deb nomlanishi aslo tasodif emas.

Shukrulloning deyarli barcha dramalarida zamon va uning qahramonlari iztiroblari, fojialari dramatik harakat orqali badiiy talqin etiladi. Dramaturg zamon va qahramon fojiasini obrazlarning ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali yanada chuqur ochadi. "Hasrat bog'i" she'riy dramasi bosh qahramonlari ikki yosh – Mels va Jamila. Ular bir-birlarini qattiq sevadilar. Ammo mash'um o'tmish bu sevishtanlarni bir-biridan ayiradi. "Melsning otasi Jamilaning otasini repressiya yillarida otdirgan" deb aytilgan mash'um haqiqat tufayli ikki yoshning hayoti ostin-ustun bo'ladi. Aslida "Hasrat bog'i" dramasi dramaturgning bosh maqsadi ikki yosh o'rtasidagi muhabbat va uning darz ketishidan ko'ra ham muhimroq – ijtimoiy-siyosiy muammoni yoritishdir. Ya'ni dramada Sovet hukumati tazyiqlaridan jabrlangan xalqning oh-u nolalari, ota-onalarning boladan, ayolning eridan, urning xotinidan ajralib qolish sabablari ijtimoiy davr fojialari sifatida ko'rsatiladi.

Ma'lumki, dramaning asosini dramatik harakat va konflikt, xarakterlar va vaziyatlar to'qnashuvi tashkil etadi. Drama nazariyasi bilan shug'ullangan olimlar konflikt, kolliziya va to'qnashuvlarni dramatik harakatni yuzaga chiqaruvchi asos, deb ko'rsatadilar. Xususan, Gegel dramadagi to'qnashuv (kolliziya)lar tabiatiga baho berar ekan: "Kolliziya asosini bartaraf etilishi kerak bo'lgan qandaydir buzilishlar tashkil etadi. To'qnashuv garmonik holatning o'zgarishi bo'lib, u, o'z navbatida, o'zgartirilishi shart bo'lgan jarayondir" (Tarjima bizniki – S.K.)[9], –deydi. H.Abdusamatov esa konfliktning dramatik asardagi o'rniga to'xtalar ekan, shunday deydi: "Konflikt yaxlit dramatik harakatga asos, omil bo'ladigan kuch. Konfliktning mohiyati, yo'nalishi, rivoji dramatik harakat qay yo'sinda bo'lishi, qanday g'oyaviy yo'nalishda borishi bilan bog'lanib ketadi. Pyesada konflikt va dramatik harakat xuddi egizakday namoyon bo'ladi hamda bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Konflikt zaiflashgan o'rinlarda dramatik harakat kuchsizlanadi, aksincha, dramatik harakat to'xtagan paytlarda esa konflikt g'oyib bo'lib ketadi"[10]. Shu ma'noda, "Hasrat bog'i" dramasi sujetidagi dramatik harakatni ijtimoiy, xarakterlararo hamda psixologik konfliktlar yuzaga chiqaradi. Bu konfliktlar xarakterlar o'rtasidagi to'qnashuvlarda, qahramonlarning Sho'ro hukumati tartiblari bilan munosabatlarida yoki personajlarning ruhiy kechinmalaridagina ifodalanib qolmay, balki ularni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan dramatik vaziyatlar, holatlar bilan ham bog'liqdir.

Xususan, dramaning ikkinchi ko'rinishida ijtimoiy (qahramon va muhit konflikti) va psixologik konflikt Onaning oh-u dardlari orqali nihoyatda ta'sirchan ochiladi. Ona dod urib, Sovet hukumatini qarg'aydi, chunki uning eri Chernobil fojiasi tufayli zaharlanib, vafot etgani yetmagandek, o'g'li Afg'on urushida halok bo'lgan va uning jasadi temir tobutda qaytib kelgan. Onaning bu fojiasini aslida boshqalar ham his etishadi, unga hamdard bo'lishni istashadi, ammo ular hukumatdan qo'rqishadi. Dramaturg bu dramatik holatni quyidagi parchada aniq ifodalaydi:

“Jamila

Xolajon qo'limizdan nima keladi...”

Azim

Bu ofatga endi chidab bo'lmaydi aslo...

Chernobilda zaharlanib, otasi o'ldi.

Sabr qilish, chidash kerak... qaysi biriga?

Hali uning alamlarin yarasi bitmay,

Mana endi ayirsalar yolg'iz o'g'ildan

Bu dunyoga nega keldi bu sho'rlik ona?!

Ona

Sovetlarning uyi kuysin, meni kuydirgan.

Murod (bu gapdan cho'chib):

Hoy-hoy, sekin, hukumatdan og'iz ocha ko'rmang.

Ona

Peshonamni sho‘r qildi-ku.

Murod

Bu gapni aytmang.

Ona nimadir demoqchi edi, Murod cho‘chib qulog‘ini qashigandek bekitib nari ketadi.

Ona

Onalarga buncha mehr bergandan ko‘ra,

Bo‘lmasmidi farzandlarga umrni bermoq”.[11]

Onaning bu gaplaridan uning ruhiyatida dramaning asosi bo‘lgan ichki psixologik ziddiyat hukmronligini, his-tuyg‘ular kolliziyasidan uning qalbi og‘ir to‘qnashuvlar maydoniga aylanganligini his qilamiz. Dramaturg Ona ruhiyatidagi kechinmalar hamda o‘y-mushohadalar ziddiyatini, asosan, psixologik kolliziya shaklida beradi. Dramadagi Ona obrazi umumlashma obraz bo‘lib, uning qora qismatida Afg‘on urushi va Chernobil fojiasining xunrezliklari bo‘y ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, fojia bu – inson taqdirining ma‘lum bir qiyin, favqulodda sharoitlarda yuzaga chiqadigan bir ko‘rinishi, xolos. Fojiali holatlar va vaziyatlarning, fojiali to‘qnashuvlarning o‘ziga xos subyektiv va obyektiv sabablari bo‘ladi. Shukurullo ham ushbu she‘riy dramada davr va shaxs munosabatidagi nomaqbul psixologik omillarni, Afg‘on urushi va Chernobil fojiasi oqibatlarini obyektiv sabab sifatida ko‘rsatsa, qahramonlar ongi va ruhiyatidagi laganbardorlik, shaxsga sig‘inish, qo‘rqoqlik kabi illatlarni subyektiv sabab sifatida keltiradi.

Xulosa. Xulosa shuki, Shukurulloning “Hasrat bog‘i” she‘riy dramasi Mels, Jamila, Xoliqulov, Ona, Ziyod kabi o‘nlab qahramonlarning hayoti, avlodlar o‘rtasidagi fojiviy zanjir badiiy talqin etiladi. Dramada zamon va qahramon tragizmi konflikt va yorqin xarakterlar yordamida mahorat bilan yoritiladi. “Hasrat bog‘i” she‘riy dramasi hayotdagi fojiani emas, balki hayot, zamon fojiasini ochib bergan asar sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жўраев Ф. Иллатга қаратилган тиғ / Шукрулло. Танланган асарлар. VIII жилд. Мақолалар, тақризлар, хатлар, телеграммалар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 135-136.
2. Хализев В. Драма как явление искусства. – М.: Искусство, 1978. – С. 5.
3. Икромов Х. Ҳасрат боғидаги надоматлар / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 456- 459; Турсунов Т. Шоир Шукруллониң “Ҳасрат” боғи драмасига тақриз / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 459- 460.
4. Икромов Х. Ҳасрат боғидаги надоматлар / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 457.
5. Турсунов Т. Шоир Шукруллониң “Ҳасрат” боғи драмасига тақриз / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 459.
6. Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. - Б. 164.
7. Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. - Б. 17.
8. Турсунов Т. Шоир Шукруллониң “Ҳасрат” боғи драмасига тақриз / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 460.
9. Гегель Г.-В.-Ф. Эстетика. В 4-х томах. Т.1. – М.: Искусство, 1968. – С. 213.

10. Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. - Б. 62.
11. Шукрулло. Танланган асарлар. VI жилд. Пьесалар. – Тошкент: Шарқ, 2012. – Б. 12-13.

